

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KODIROV MAKSUDBEK MAXMUDJON O'G'LI**

**ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA LABDAN O'QISH  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

**Kodirov Maksudbek Maxmudjon o'g'li**

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalari  
rivojlantirish.....3

**Кодиров Максудбек Махмуджон ўғли**

Развитие компетенции чтение с губ у учеников с нарушениями  
слуха.....23

**Kodirov Maksudbek Makhmudjon ogli**

Improving the methodology for the development of linguistic competencies of  
specialized school children.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of publication.....47

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KODIROV MAKSUDBEK MAXMUDJON O'G'LI**

**ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA LABDAN O'QISH  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped1992. raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek,rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi –[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali –[www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamarajabova Zulfiya Narbayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qodirova Feruza Usmanovna**  
pedagogika fanlari doktori

**Turg’unboyev Sirojiddin Faxriddinovich**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan).Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2023 yil“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**B.S.Abdullaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, ped.f.d., prof.

**R.G.Isyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, ped.f.n., dotsent

**L.R.Muminova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.d.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar labdan o'qish bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda so'z boyliklarini oshirish texnikasi amaliyotga tatbiq etilmoqda. UNESCO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha Xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" strategik vazifa sifatida qabul qilinib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tovush metodlari asosida o'qitish, analitik qobiliyat, ta'lim va innovatsiyaning uyg'unligini ta'minlash, kommunikativ kompetensiyalarni idrok etish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini nutqini rivojlantirish, ta'limning har bir bosqichida shaxsning shakllanishi jarayonida labdan o'qish bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish muhitini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'qitishning intensiv texnologiyalarini takomillashtirish, rivojlantirish, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, labdan o'qish orqali kommunikativ malakalarini rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda sog'lom yoshlar kabi ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning salomatligini hamda aqliy, psixologik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, yagona va uzluksiz ta'lim tizimi asosida amalga oshiriluvchi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim turlari va shakllarini globallashtirish davr talablari hamda xalqaro ilg'or tendensiyalar asosida takomillashtirishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi moddiy texnik bazasi rivojlantirilmoqda. "Ta'lim sohasini rivojlantirish; uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish; umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish; aholining ijtimoiy nochor qatlamlari sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish"<sup>1</sup> ta'lim tizimi sohasidagi ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada respublikamizda umumta'lim maktablari qatorida ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida jismoniy, aqliy, sensor yoki ruxiy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash sifatini oshirish bo'yicha ta'lim xizmatlarini modernizatsiyalash, axborotli ta'lim muhitini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. –B. 70-71

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 oktabrdagi O‘RQ-641-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta‘lim extiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsiya g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Kar va zaif eshituvchi bolalar eshitishini kompensatsiyalash choralarning ahamiyati va eshituv idrokining ta‘lim jarayoniga ta‘siri F.Alimxo‘jaeva, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov, N.Dadaxo‘jaeva, Z.Mamarajabova, D.Nazarova, R.Rustamova, U.Fayzieva, F.Qodirova, D.Yakubjanovlar; milliy korreksion pedagogikada aqliy rivojlanishi, nutqi, ko‘rishida muammolari bo‘lgan bolalar ta‘limiga oid ilmiy-tadqiqotlar M.Ayupova, N.Abidova, L.Mo‘minova, D.Nurkeldieva, R.Shomaxmudova, G‘.Shoumarov, N.Raxmonqulova, X.Pulatova, M.Hamidova, M.Xakimova, A.Xoliqovlar tomonidan olib borilgan.

MDH davlatlari olimlari I.Bagrova, V.Beltyukov, R.Boskis, L.Golovchis, O.Zontova, S.Zikov, I.Koroleva, Ye.Kuzmicheva, A.Kruglov, A.Sataeva, E.Leongard, L.Neyman, L.Noskova, T.Pelinskaya, F.Rau, N.Shmatkolarning ilmiy izlanishlarida kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqi, talaffuzi, eshitish idrokini tiklash orqali nutqini rivojlantirish tizimi tadqiq qilingan.

Xorijlik olimlardan Harry G.Lang, John Albertini, Gertrud Mally, Gunter Maisch, Howard Poizner, Penny Boyes Braem, Renate Poppendieker, Siegmund Prillwitz. kar va zaif eshituvchi bolalarni eshituv-nutqiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy va psixologik jihatlari tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Toshkent davlat pedagogika universitetining PZ-20170923121 raqamli “Ta‘lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2019 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda labdan o‘qish kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va metodik imkoniyatlarini tahlil qilish;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarni labdan o'qishga o'rgatishning metodikasini takomillashtirish;

innovatsiya ta'lim texnologiyalari vositasida eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarni labdan o'qishga o'rgatish modelini takomillashtirish;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish texnikasini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent viloyati Olmaliq shahar 80-sonli kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab internati, Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasi, Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi 2-son zaif eshituvchi bolalar maktab-internatning 268 nafar 1-4 sinf o'quvchilari jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov ishlari tahlili, umumlashtirish, ijtimoiy metodlar anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tizimli-faoliyatli, ijtimoiy-madaniy va pragmatik yondashuvlar hamda muloqotni faollashtirish mezonlarini nutqning emotsional va interpretativ ta'sirchanlik darajalariga uyg'unlashtirish asosida aniqlangan;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarni labdan o'qishga o'rgatish metodikasi fundamental va amaliy yo'nalganlik, individuallik, pedagogik hamkorlik, til, nutq, ijtimoiy-madaniy, o'qib-tushunish xamda kompensator ko'nikmalari rivojlanish bosqichlarini stilistik differensiyalash asosida takomillashtirilgan;

eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi, kichik hikoyalarni tuzish, anglash va hissiy xususiyatlarini dialoglar, diktant, rasmlar seriyasi va "Kvartet", "Telefon", "Loto", "Top-chi, bu nima?" o'yinlari hamda evristik va produktiv faoliyatning bosqichma-bosqich joriy etish takomillashtirilgan;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarida labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish modeli jamiyatga moslashuvining ijtimoiy-madaniy, kommunikativ va tizimli yondashuvlar xamda shaxsiy xislatlarni yaxlitligi va sifat salohiyatini uyg'unligini adekvat ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan metodik vositalari (multimediya, slayd, video, elektron qo'llanma) bilan texnologik jihatdan dars jarayoni to'ldirildi;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni fanlararo o'zar integratsiya asosida takomillashtirildi;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha surdopedagoglarining faoliyatini intensiv ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning metodik imkoniyatlari kengaytirildi;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga mo'ljallangan metodik ta'minotidan keng amaliyotda foydalanish imkoniyatlari belgilandi;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishning bo'yicha tadqiqot natijalaridan maxsus pedagogika fakulteti bakalavriat bosqichida "Labdan o'qishga o'rgatish metodikasi" "Ona tili o'qitish maxsus metodikasi" fanini o'qitishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** unda qo'llangan yondashuv, usullar, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarni labdan o'qishga o'rgatishning amaldagi holati tajriba – sinov ishlari orqali o'rganilgan, samarali omillari va yo'llari aniqlangan, intensiv ta'lim texnologiyalari asosida eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishning modeli amaliyotgan joriy etilgan, komponentlari ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalaridan amaliy ahamiyati eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarning ona tili darslarida, bakalavr-defektolog mutaxassislarini tayyorlashda maxsus pedagogika va fanlarni o'qitish metodikasi (surdopedagogika) modullarini o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarning labdan o'qishga o'rgatish mazmuni tizimli-faoliyatli, ijtimoiy-madaniy va pragmatik yondashuvlar hamda kompetentlilik mezonlarini aniqlashtirishga oid takliflar asosida "Labdan o'qishga o'rgatish metodikasi" o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi 302-son ruxsatnomasi). Natijada, o'quvchilarning labdan o'qishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik, psixologik va metodik imkoniyatlarini kengaytirish imkoniyati yaratilgan;

eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik komponentlari fundamental va amaliy yo'nalganlikni individuallik, pedagogik hamkorlik, ko'rgazmalilik tamoyillari asosida o'zaro optimallashtirishga oid takliflar asosida "Labdan o'qishga o'rgatish metodikasi"

o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi 302-son ruxsatnomasi). Natijada o'quvchilarda labdan o'qishga o'rgatishning didaktik komponentlari takomillashtirilgan;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning labdash o'qishga o'rgatish metodikasi "Qayta hikoyalash" (Picture story), "Pinboard", "Diskkurs", "Intervyu" kabi faol o'qitish metodlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflardan "Maktab yoshidagi murakkab nuqsonli bolalarning differensial ta'lim-tarbiya texnologiyasi" mavzusidagi amaliy loyixa doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi 302-son ruxsatnomasi). Natijada labdan o'qishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 xalqaro va 6 respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qishga o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarni labdan o'qish kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metologik asoslari, omillari, pedagogik-psixologik imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

L.Ch.Ivanovning fikricha, "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Odam nutqi bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa fikr qilolmaydi. Tafakkur bo'lmasa nutq bo'lishi mumkin emas". L.Ch.Ivanovning yuqoridagi fikridan ko'rinib turibdiki insonning psixik rivojlanishi uchun nutq va tafakkur jarayonlari bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Qadimgi yunon faylasufi Arastu inson sezgi a'zolaridan birining mavjud bo'lmasligi yoki uning buzilishi yaxlitlik va butunlikni izdan

chiqarib, uning umumiy rivojlanishiga yo‘l qo‘ymasligini alohida ta’kidlaydi hamda eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: “Tovush fikrlash vositasi bo‘lib, eshitish atrof olamni anglashning muhim organidir. Shu bilan bog‘liq ravishda aytish mumkinki, tug‘ilgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo‘ladi”. Zamonaviy maxsus ta’lim tizimining nazariy asoschisi L.S.Vigotskiy eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan soqovlik – insoniy nutqning mavjud bo‘lmasligini keltirib chiqarsa, o‘z navbatida, nutqni egallay olmaslik umumiy madaniy rivojlanishga katta salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida qayd etadi. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarni atroflicha o‘rgangan R.M.Boskis eshitish analizatori funksiyasining nisbatan buzilishi – shivirlashni idrok etish imkoniyatining chegaralanishi ham bola nutqining me’yorda rivojlanishiga, buning oqibatida mantiqiy tafakkurining shakllanishiga to‘sqinlik qilishini ko‘rsatib o‘tadi

Surdopedagogikada turli tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, har biri bir-biridan yo‘nalishlariga ko‘ra farq qiladi. Ijodiy faoliyat va nutqni o‘zaro bog‘liqligini psixologik jihatdan L.S.Vigotskiy, P.Y.Galpern, I.V.Dubrovina, E.F.Zeer, V.P.Zinchenko, V.A.Karimova, A.N.Luk, E.A.Klimov, V.A.Krutetskiy, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomrev, S.L.Rubinshteyn, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, E.G.‘ozievlar o‘z tadqiqotlarida o‘rganganlar, shaxs ijodiy faoliyatini va ijodkorlik qobiliyatlarini hamda nutqni rivojlantirish masalalari T.A.Barisheva, D.P.Bogoyavlenskiy, M.G.Davletshin, Z.Nishonova, V.A.Shekalov va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan. Zamonaviy surdopedagogika sohasidagi qator yutuqlar so‘nggi yillarda E.I.Leongard, E.G.Samsonova N.D.Shmatko, T.V. Pelimskaya, I.V. Koroleva, V.I. Pudov, O.V. Zontova, A.D. Salaxova, N.V. Kochegarova, V.N. Svodina kabi yetuk olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bilan bog‘liq. Ularning tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi yutuqlardan keng foydalangan holda olib borgan izlanishlari eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar abilitatsiyasi va rehabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish va nutq muammosining erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta’sir ko‘rsatmoqda. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq qilish L.S.Vigotskiy, R.M.Boskis, K.G.Korovin, V.A.Sinyak, A.G.Basova, S.F.Egorov, A.G.Zikeev, S.A.Zikov, A.I.Dyachkov, N.I.Jinkin, A.R.Luriya, E.V.Mironova, N.G.Morozova, B.D.Korsunskaya, E.I.Leongard, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchich kabi rus olimlarining diqqat markazida bo‘lib keldi. Ushbu olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijasida eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar ham, xuddi sog‘lom tengqurlari kabi, ijtimoiy shaxs bo‘lib etishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlangan. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarni labdan o‘qish kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini zamonaviy o‘qitish jarayonini tahlili mazkur yo‘nalishda muallaqlikni isbotladi. Og‘zaki nutqni ko‘rish orqali idrok qilish (labdan o‘qish) muammosi rus olimlari M.V.Bogdanov-Berezovski, I.A.Vasilev, A.I.Mett, N.A.Nikitina, N.A.Rau, F.F.Rau, I.A.Sokolyavskiy va I.M.Solovev, chet ellik olimlari B.Barber, K.Braukman, M.Vudvord, V.Vong, G.Gepfert, I.Grazer, R.Lindner, B.Morkovin, Yu.Myuller, E.Nichi, G.Oer, P.Fisher, G.Forxgammer,

S.Xadjins tomonidan o'rganilgan A.Rauning tasnifiga ko'ra, labdan o'qish o'qitishning tahliliy metodlari, o'z navbatida, statik, dinamik va kinestetik turlarga bo'linadi. Statik tahliliy metodning himoyachilari qatorida Shmals va Fisher bo'lgan. Shmals va Fisherlarning konsepsiyasi bo'yicha, ular e'tiborni faqat idrok qilinadigan artikulyatsiyaning optik tasavvuriga qaratgan. Bu tadqiqotchilarni fikricha, labdan o'qishda eng muhimi – bu mumkin qadar nutq organlari holatidagi farqni ko'z orqali o'tkirroq ajratish, iloji boricha ko'p tovushlar o'rtasida farqlashni shakllantirishdir. Nutqning yaxshi ko'rinadigan tovushlarini, ayniqsa unilarni, Shmals geshtalregerlar deb nomlagan, chunki ularni so'z va iboralar taniladigan tayanch punktlar deb hisoblagan. Shmals va Fisherlar metodi kech kar bo'lib qolgan va qulog'i og'ir kishilarni labdan o'qishga o'rgatishga mo'ljallangan bo'lgan. Biroq, mazmuni bo'yicha u nutqni shakllantirish tovush metodi tamoyillariga ko'ra, labdan o'qishga o'rgatish tahliliy yo'l bilan olib borgan kar bolalar maktablari amaliyotidan olingan bo'lgan. Mazkur metodning talablariga muvofiq o'quvchilar avvalo u yoki bu tovushni talaffuz etganida nutq organlari holatini o'rganish kerak edi, va tovushlar shunday qilib statik holatda tasavvur etilgan. Labdan o'qishning ikkinchi tahliliy metodi – bu Myuller metodi. Unda boshidan o'rganish ob'ekti sifatida nutq organlari holati emas, balki ularning harakatlanishi, statik emas – dinamik ko'rish tasavvurlari bo'lgan. Shmals va Fisherlarga o'xshab, Myuller ham labdan o'qishning siri – bu mumkin qadar nutq organlari holatidagi farqni ko'z orqali o'tkirroq ajratish, va iloji boricha ko'p tovushlar o'rtasida farqlashni shakllantirish deb hisoblagan. Myuller metodi Nichi tomonidan rivojlantirildi va to'ldirildi. U Myuller kabi labdan o'qishga o'qitishni tovushlarga mos oddiy harakatlardan boshlashni tavsiya qilgan. Biroq, bu tovushlar o'zaro bog'lamasdan emas, balki tabiiy ravishda talaffuz etiladigan so'zlar tarkibida olinadi. Nichi idrok qilinuvchi kontekstga muvofiq mazmunan kombinatsiya qilish qobiliyatga katta e'tiborni qaratgan.

Uchinchi tahliliy metod–bu Braukmanning kinestetik metodi. Braukmanning fikricha, labdan o'qishning asosida optik qo'zg'atuvchi ta'sirida odatiy nutqiy harakatlarini paydo bo'lishi yotadi O'z vaqtida Bonet taxminiga ko'ra, labdan o'qishda tovushlarni aniqlash uchun ko'rinadigan nutqiy harakatlarga taqlid qilish kerak. Lekin bu taqlid harakatlarni amalga oshirishning sharti deb Bonet ularni to'liq ko'rishga imkon borligini hisoblagan. Biroq, biroz vaqt o'tgach u barcha nutq harakatlari ko'rishga imkon yo'qligiga amin bo'ldi. Shunday qilib, og'zaki nutqni ko'rish orqali idrok qilish va u bilan bog'liq labdan o'qishga o'qitish metodikalar mexanizmlariga tegishli masalalar bo'yicha hozirgi vaqtgacha ma'lum kelishmovchiliklar mavjud bo'lib, mazkur muammo yetarli o'rganilmagan va u hozirgi kungacha juda dolzarbligicha qolmoqda.

Dissertasiyaning **“Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini o'rganish”** deb nomlangan ikkinchi bobida ta'kidlovchi tajriba-sinovning maqsad, vazifa tashkillashtirish tamoyillari va metodikasi ishlab chiqilgan. Ta'kidlovchi tajriba-sinov maqsadi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarni labdan o'qish kompetensiyalarni rivojlanganlik darajasini o'rganishdan iborat bo'ldi. Tajriba-sinov ishlariga Toshkent viloyatidagi Olmaliq shaxar 80-sonli kar va zaif eshituvchi bolalar uchun

ixtisoslashtirilgan maktab internati, Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasi, Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi 2-son zaif eshituvchi bolalar maktab-internatning 268 nafar 1-4 sinf o'quvchilari jalb etilgan. Ishlab chiqilgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini o'rganish uchun biz surdopedagogik amaliyotdagi xorijiy olimlardan F.F.Rau, T.V.Nikolaeva, T.V.Rozanova, milliy maxsus pedagogika olimlaridan D.A.Nazarova, U.Y.Fayziyeva, R.Rustamovalarning ishlarida qo'llanilgan an'anaviy usullarga tayanib ish olib borildi. Eksperimental tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilarni belgilandi: dastlabki kuzatishlar orqali muammoning dolzarbligini asoslash; eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy unli va undosh tovushlar, bo'g'inlarni labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish; eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarni, jummalarni labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik xususiyatlarini o'rganish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik holatini o'rganishda tanlangan nutqiy materiallar amaldagi dasturlarga va yakka tartibda olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchilarining har bir o'quvchi uchun alohida tuzgan fonetik kundaligiga asosan tanlandi va sinflar bo'yicha topshiriqlar oddiydan murakkabga munosabatda tuzildi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik holatini o'rganish ikkita yo'nalishdagi topshiriqlar tizimi asosida amalga oshiriladi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qish kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini mezonlari (yuqori, o'rta, past) darajalari ishlab chiqildi hamda sifat va miqdor statistik metodlari asosida natijalari tahlil qilinib, umumlashtirildi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida quyidagi umumiy xulosalarga keldik: bolalar tanish tovush va so'zlarni uzoq masofada ham idrok eta olishdi; ularda ijobiy nutqiy faollik kuzatildi; nutqni tanish, farqlash va ajratish ko'rsatkichi nutqiy material murakkablashgan sari pasayishi aniqlandi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qish kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini darajalarini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari quyidagi ko'rinishda umumlashtirildi.

Nutqiy unli tovushlarni labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik xolatini o'rganishda 1-4 sinflardan 268 (1-sinf 100, 2-sinf 60, 3-sinf 52, 4-sinf 56) nafar o'quvchilar qamrab olingan. 1-sinfdan 10 nafar (yuqori daraja), 18 nafar (o'rta daraja), 72 nafar (past daraja), 2-sinfdan 9 nafar (yuqori daraja), 20 nafar (o'rta daraja), 31 nafar (past daraja), 3-sinfdan 9 nafar (yuqori daraja), 23 nafar (o'rta daraja), 20 nafar (past daraja), 4-sinfdan 11 nafar (yuqori daraja), 23 nafar (o'rta daraja), 22 nafar (past daraja) o'quvchilarning unli tovushlarni labdan o'qish malakalari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Nutqiy undosh tovushlarni labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik xolatini o'rganishda 1-4 sinflardan 268 (1-sinf 100, 2-sinf 60, 3-sinf 52, 4-sinf 56) nafar o'quvchilar qamrab olingan. 1-sinfdan 8 nafar (yuqori daraja), 20 nafar (o'rta daraja), 72 nafar (past daraja), 2-sinfdan 9 nafar (yuqori daraja), 20 nafar (o'rta daraja), 31 nafar (past daraja), 3-sinfdan 10 nafar (yuqori daraja), 22 nafar (o'rta

daraja), 20 nafar (past daraja), 4-sinfdan 11 nafar (yuqori daraja), 23 nafar (o'rta daraja), 22 nafar (past daraja) o'quvchilarning undosh tovushlarni labdan o'qish malakalari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Nutqiy material (so'zlarni, jummalarni) labdan o'qish kompetensiyalarining shakllanganlik xolatini o'rganishda 1-4 sinflardan 268 (1-sinf 100, 2-sinf 60, 3-sinf 52, 4-sinf 56) nafar o'quvchilar qamrab olingan. 1-sinfdan 8 nafar (yuqori daraja), 20 nafar (o'rta daraja), 72 nafar (past daraja), 2-sinfdan 9 nafar (yuqori daraja), 20 nafar (o'rta daraja), 31 nafar (past daraja), 3-sinfdan 10 nafar (yuqori daraja), 22 nafar (o'rta daraja), 20 nafar (past daraja), 4-sinfdan 11 nafar (yuqori daraja), 23 nafar (o'rta daraja), 22 nafar (past daraja) o'quvchilarning so'zlarni, jummalarni labdan o'qish malakalari mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Ta'kidlovchi tajriba-sinov maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qish kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini mezonlarlari (yuqori, o'rta, past) darajalari ishlab chiqildi hamda sifat va miqdor statistik metodlari asosida natijalari tahlil qilinib, umumlashtirildi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida labdan o'qish kompetensiyalarini shakllanganlik darajalarini aniqlash turkum vazifalar bo'yicha tadqiqot natijalari umumlashtirildi. Ta'kidlovchi tadqiqot natijalari ko'rsatkichi, eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish shakllanganlik I (yuqori) darajasi ko'rsatkichi va II (o'rta) darajasi ko'rsatkichlari kam ifodalangan. III (past) rivojlanish darajasining ustunlik qilishi labdan o'qishga o'rgatish ta'limi natijalarining pastligi haqida xulosa qilishga asos bo'ldi.

Dissertasiyaning **“Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalari rivojlantirish bo'yicha korreksion-pedagogik ish”** deb nomlangan uchinchi bobida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qishga o'rgatish bo'yicha korreksion-pedagogik modeli va texnologiya, maxsus ta'lim muassasalarida ta'limiy tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni, bosqichlari, usullari yoritilgan va tajriba-sinov natijalarining matematik ctatictik tahlili keltirilgan. Tadqiqot davomida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qish kompetensiyalarining rivojlantirish modeli yaratilib, to'plangan tajriba mantiqiy jihatdan o'qituvchilar ish faoliyati, shakl, usul va uslublarining majmui sifatida ko'rib chiqildi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qishga o'rgatish jarayonini modellashtirish – bu modellarni yaratish va ulardan ob'ekt tarkiblari, shu ob'ektlar elementlari o'rtasidagi munosabatlar va aloqalar haqidagi tasavvurni shakllantirishda foydalanish jarayonidir. Bu jarayon uni tashkil etuvchi komponentlarining mantiqiy jamlanmasini, ta'lim bosqichlari va ta'lim jarayonining tuzilishini aks ettiruvchi texnologiyalar va ularni joriy etishga imkon beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalari rivojlantirish modeli maqsadli, mazmunli, tashkiliy-pedagogik, natijaviy – xulosaviy bloklari har qanday didaktik tizimning tizimlashtirilgan faktori sifatida namoyon bo'ldi. Didaktik tizimdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni labdan o'qishga o'rgatish ishlari bo'yicha ta'lim bloklariga didaktik tizimni rivojlantirishning zaruriyligi kiradi. Didaktik modelni shakllantirishga kirisha turib, biz, eng avval, korreksion ishlarning ob'ektini aniqlab oldik. Ushbu vaziyatda labdan o'qishga o'rgatishning didaktik

modeli labdan o'qishga o'rgatish jarayonidagi kamchiliklarni, alohida funksional elementlarni aks ettiruvchi qiyinchiliklar, ularni o'rganishning ketma-ketligi va vaqti, shuningdek birliklar o'rtasidagi aloqani o'rganish jarayonining avtonom modeli sifatida aniqlandi. Biz taklif qilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari labdan o'qishga o'rgatishning didaktik modeli—bu pedagogik jarayondagi o'quvchilarni labdan o'qishga o'rgatishning ob'ektiv zaruriyati va mazkur muammoning ham nazariy ham amaliy tomonlarni etarlicha ishlab chiqilmaganliklari o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga urinishdir. Maktabda bo'lishning birinchi kunlaridan boshlab bolalar o'qituvchi barmoqlari harakatlarini idrok qilib, uning nutqiy a'zolari harakatlarini kuzatishga, barmoq belgilarini va ko'rinadigan nutqiy harakatlarni qaytarishga o'rganib boshlaydi. Boshida nutqiy harakatlarni idrok qilish va boz ustiga ularni qaytarish juda nomukammal bo'ladi. Nutqni yanada rivojlantirish, talaffuz etish ko'nikmalarni o'zlashtirish va og'zaki daktil muloqot amaliyotini kengaytirish tufayli bolalar labdan o'qish orqali tanish nutqiy materialni idrok qilish bo'yicha yanada ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishadi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari labdan o'qishga o'rgatishning didaktik modelining asosiy yo'nalishi quyidagilar:

1. Labdan o'qishga o'rgatish borasida yaxlit ta'lim jarayonini ta'minlash.
2. Labdan o'qishga o'rgatish maxsus maktab o'quvchisining jamiyatga moslashuvi sharti sifatida, maxsus ta'lim ishlarining samaradorligi va sifatini oshirish.
3. Qayta tiklovchi jarayonning ixtisoslashtirilgan ta'lim maktabi dasturi bilan integralashuvi birlashuvi.
4. Ikkilamchi nuqsonlarning paydo bo'lishining profilaktikasi.
5. Jarayonni boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchilarining ijodiy faolligini oshirish va tashkil etish.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilariga labdan o'qishga o'rgatish uchun barcha yordam umumiy va korreksion pedagogikaning nazariy asoslariga, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonining xususiyatlari asosiga qurilgan. Ixtisoslashtirilgan o'quvchilari labdan o'qishga o'rgatish jarayoni o'quvchiining salohiyati va ularni o'quv va noo'quv faoliyatda namoyon qilishga asoslanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari labdan o'qishga o'rgatishning didaktik modelining maqsadi, bizningcha, - bu o'quvchilar nutqini yangi rivojlanish bosqichiga, anglash va hissiy xususiyatlarini darajasining ko'tarilishidir. Maqsadli blok eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalari rivojlantirish maqsadi, hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalari rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etish, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalari rivojlantirishning modelini takomillashtirish, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda labdan o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish kabi vazifalari qamrab oladi. Mazkur model yaxlitlik, o'qitishning shaxsga, ob'ektivlikka yo'nalganligi, o'qitishning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishga yo'nalganligi, texnologiklik, ilmiylik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatish,

dinamiklik, samaradorlik tamoyillarga asoslanib faoliyatini amalga oshiradi. O'qitishning shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili labdan o'qishga o'rgatish pedagogik jarayon sub'ektlari sifatida aniqlashga va ularning sub'ektiv tajribasini o'z qadr-qimmatini sifatida tan olishga asoslangan. O'qitishning kar bolani o'zini o'zi rivojlantirishga yo'naltirilganligi butun pedagogik jarayonning muhim qismi sifatida shaxsan eshitishda nuqsoni bo'lgan bola tomonidan maqbul mezonlarga muvofiq amalga oshiriladigan aniq ifodalangan jarayonda mujassam bo'lishi kerak. Yaxlitlik tamoyili labdan o'qish faoliyatining ko'plab komponentlarini (ob'ektlar va jarayonlar, o'zaro ta'sir usullari, motivatsiya, nazorat va o'zini o'zi boshqarish usullari, o'qitish usullari, faoliyatning yo'nalishli asosini) o'z ichiga olgan korreksion ta'lim muhitini tashkil etish bilan asoslanadi. Sub'ektivlik tamoyili. O'rta ta'lim tizimini qayta qurish sharoitida bolalarning yakka xususiyatlarini o'rganish tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Maktabga kirayotgan har bir bola muayyan axborot yig'indisiga va yakka xususiyatlarga ega, ular bilimlarni o'zlashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq o'qitish jarayonida bolalar guruhida bilimlarni o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lishi mumkin. Binobarin, bolalar rivojida to'g'ri keladigan umumiylikni aniqlash mumkin. U rivojlanish darajasi, bilim zahirasi, fikrlash xarakteri, faoliyat va xulq-atvor baholarining o'xshashligi bo'lishi mumkin.

Ammo umumiylik bilan bir qatorda, har bir o'quvchi uchun o'zining yakka xususiyatlari: diqqatining rivojlanishi, darsdagi xulq-atvorining xarakteri, fanga munosabati, ko'rgazmali va og'zaki materialni qabul qilishining tezligi va aniqligi; o'quv materialini tushunib olishi va fikrlash xarakteri; tabiat to'g'risidagi bilimlarining sifati va og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojlanish darajasi o'ziga xosdir. O'qituvchi, sinfda ish olib bora turib, har bir o'quvchi bilan yakka tarzda ishlash, ijobiy hislarni rivojlantirish va salbiylarini bartaraf qilish, sinfni jamoa ishiga tortish maqsadida har bir bolaning shaxsiy qobiliyatini o'rganish va hisobga olish zarurligini unutmashligi kerak. Tizimlilik tamoyili. Bu tamoyil olingan bilimlarni, shakllantirilgan o'quv ko'nikmalari o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanishini nazarda tutadi. O'quvchilar bilimining puxta bo'lishi ko'rsatib o'tilgan tamoyillardan o'quvchilarning saviyasi hamda qiziqishiga qanchalik muvofiq tarzda foydalanilishiga bog'liq. Bilimlarning puxta bo'lishiga erishish uchun, avvalo, o'quv yili boshlanishida ilgari o'tilgan materialni yangi bilimlarning o'zlashtirilishini ongli bo'lishi uchun tiklash zarur. Birinchi navbatda, dasturning yangi material bilan ko'proq bog'liq bo'limlarini takrorlash lozim. Bunda yangi bilimlarini o'zlashtirishning birinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilar yangi materialni asosli ravishda tushunishlari va o'zlashtirib olishlari uchun uning barcha hajmini emas, balki asosiy mazmunini berishi kerak. Chunonchi, "Vatanimiz tabiatining xilm-xilligi" mavzusini o'rganishda o'quvchilarda avval o'lkadagi tabiiy sharoitning turli-tumanligi, keyin har bir hudud bilan tanishadilar. Bu yangi axborotlarni kiritib borish imkoniyatini beradi. Ular yordamida har bir hudud uchun xos bo'lgan xususiyatlarni, jumladan, o'simlik va hayvonot dunyosi aniqlanadi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar berib boriladi. Puxta bilimlarga erishishda ularni o'quvchilarning faol fikr yuritishlari asosida tizimlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar yangi bilimlarni, ilgari

